

## OTA-ONALARNING BOLAGA MUNOSABATI IJTIMOIY FOBIYA OMILIGA YO'NALTIRILGAN TADQIQOT METODIKALARINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

*Odilova Yoqutxon Islomovna,*

*Navoiy davlat pedagogika instituti psixologiya fani o'qituvchisi*

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.073>

Oilaviy munosabatlarni psixodiagnostik baholash ishlari o'ziga xos tadqiqot sanalib, hozirgi kunda ushbu turkumdagagi masalalar nafaqat fan uchun balki, jamiyat va davlat uchun ham, o'ta ahamiyatli ishlar turkumidan biri sanaladi. Ayniqsa, ota-onalarning bolaga munosabati va uning oqibatida yuzaga keluvchi turli buzilgan xulq-atvor shakllari, deviant xulq, bulling xulq, shavqatsiz munosabat hamda ularning oqibatida yuzaga keluvchi, ijtimoiy fobiyalari bunga yaqqol misoldir. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishmizdan asosiy maqsad, ota-onalarning o'z bolalariga bo'lgan munosabatining xususiyatlarini, ijtimoiy fobiya shakllanishi muhim omili sifatida ekanligini dalillashdir. Ijtimoiy fobiya muammosining metodologik jihatlari, o'z mazmunida shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy -psixologik xususiyatlar hamda ularning rivojlanish shart-sharoitlarini, shuningdek, bu xususiyatlarning boshqalar bilan o'zaro munosabatda qay darajada namoyon bo'lish kuchi kabilarni ham o'z ichiga oladi. Tadqiqotni tashkil etishdan oldin biz quyidagi vazifalarni amalga oshirishni belgilab oldik:

– Ijtimoiy fobiyada ota-onalarning bolaga munosabati xususiyatlarini va ularning ijtimoiy fobiya namoyon bo'lishi bilan bog'liqligini meta hodisa sifatida o'rghanish;

– Ijtimoiy fobiyada oiladagi o'zaro munosabatlarning psixologik o'ziga xosliklarini va ota-onalarning tarbiyadagi funksiyalari bilan bog'lab o'rghanish;

– Ijtimoiy fobiyada psixologik makonning psixologik xususiyatlarini va uning ijtimoiy fobiyaning keltirib chiqarishdagi imkoniyatini o'rghanish;

– Ijtimoiy fobiyada yengish strategiyalari va emotsiyonal intellektning rolini aniqlash va boshqalar.

Umuman olganda, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni amaliy o'rghanish ishlarida, psixodiagnostikaning eng ilg'or usullaridan foydalanmaslik mumkin emas. Shuning uchun ham, tanlangan psixodiagnostik vositalar nafaqat aniqlovchi, balki munosabatlar mazmunini aniq yorituvchi, balki evristik (tez topa oluvchi) xarakterda bo'lishi lozim sanaladi. Oilaviy munosabatlarni ilmiy baholashda, psixodiagnostik usullar turli mezonlar bo'yicha guruhlangan. Usulning tarkibiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlarni diagnostika qilish usullarining to'rtta guruhni ajratiladi: barcha beshta intervyular, proyektiv, so'rovlar, maqsadga yo'naltirilgan yoki haqiqiy xatti-harakatlar va munosabatlarni kuzatish. Shuni ta'kidlash kerakki, barcha usullar bunday aniq tasnifga bo'ysunmaydi, ba'zilari turli xil usullar guruhlari yelementlarini birlashtiradi. Bolaning rasmini badiiy vositalar yordamida olingen intervyuning bir turi deb hisoblash mumkin va bu intervyuning farqi uning proyektiv xarakteridir, chunki rasmida ko'pincha bolalarning ular to'liq bilmagan hissiy kechinmalari aks etadi. Tadqiqotchi O.Shmelevning ta'kidicha, oilaviy munosabatlarni diagnostik o'rghanishning metodik vositalari mazmunan quyidagi guruhlarga bo'linadi :

1. Oila a'zolarining individual-psixologik xususiyatlarini o'rghanuvchi psixodiagnositik vositalar. Mazkur xususiyatlarni baholash uchun, shaxslilik so'rovnomalari, masalan, MMPI, 16 omilli shaxs so'rovnomasi va boshqalar qo'llaniladi;

2. Oila a'zolarining kognitiv sohasi xususiyatlari baholashga qaratilgan diagnostik vositalar: bunda ijodiy uslub, kognitiv murakkablik, ong tuzilishining integral xususiyatlari hisobga olinadi;

3. Oila a'zolarining qadriyatli - motivatsion sohasining xususiyatlari baholovchi diagnostik vositalar: qadriyatlar yo'nalishi, oilaviy qadriyatlar va uning ko'rinishlari.

4. Oiladagi o'zaro munosabatlari va muloqot shaklini o'rghanuvchi diagnostik vositalar: ota-onalik funksiyasi, ota-onalarning bolaga munosabati, mas'uliyat va empatik munosabatlar, psixologik farovonlik kabil usullar shular jumlasidandir.

Ayrim tadqiqotchilar ota-onsa va bola munosabatlari diagnostikasi usullarini ikki guruhga ajratadilar: ya'ni "ota-bola" tizimidagi shaxslararo munosabatlarni otaning nigohi bilan, ikkinchisi esa, bolaning nigohi bilan tekshirishni taklif etadilar. "Ota-onsa-bola" tizimida shaxslararo munosabatlarni o'rganilar ekan, tadqiqotchi bunda quyidagilarga e'tibor beradi:

– Ota-onalarning o'z farzandlariga munosabati va reaksiyalari;

– Ota-onalarning bolaga va oiladagi hayotga munosabati;

– Oiladagi tarbiya jarayonining buzilishiga;

– Oilaviy tarbiyadagi og‘ishlarning sabablari, tarbiya turi, ota-onaning malaka darajasi, bolani bilishi va boshqalar. O.A.Karabanovaning aytishicha, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlar quyidagi ijtimoiy-psixologik usullar yordamida o‘rganiladi :

Oila genogrammasi (R.Guerin va Ye.Pendagast) va avlodlararo muammolarni aniqlash (Ye. Edemiller, N.Aleksandrova) metodikalari, keng qamrovli baholash ishlari uchun o‘ta foydali hisoblanib, ushbu psixodiagnosotik vositalar oilaviy munosabatlar haqida, ota-onalarning o‘z farzandlariga bo‘lgan munosabati, oilavuy qadriyatlarga rio qilish an‘analari hamda turli unga aloqador ijtimoiy ma’lumotlarni olishga keng yordam beradi. Buning uchun, oilalarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy holati, ularning etnik va diniy mansubligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham aniqlash maqsadga muvofiq sanaladi. L.I.Vassermanga ko‘ra esa, oilaviy munosabatlarni amaliy o‘rganish an‘analarida, ota-onalarning o‘z farzanlariga bo‘lgan munosabatlari quyidagi psixodiagnostik vositalar orqali tadqiq etiladi :

– R.Moos tomonidan taklif qilingan “Oilaviy ekologik shkala” original uslubiy metodologiyaga asoslangan;

– S.Kupriyanov tomonidan ishlab chiqilgan “Oila moslashuvi va uyg‘unligi shkalasi”. Mazkur test, V.Bextereva nomidagi ilmiy tadqiqot psixonevrologiya institutidan moslashtirilgan.

– E. Shefer, R. Bell, “Ota-bola munosabatlari” testi.

– A.Varga, V.Stolinlarning “Ota-onsa munosabati so‘rovnomasasi”. Bunda oilada bolalarni tarbiyalash va ular bilan muloqot qilish usullari tipi aniqlanadi.

– T.Lirining shaxslararo munosabatlar diagnostikasi metododikasi;

– Ye.Zaxarova “Bola va ota-onalarning hissiy sohasini eksperimental o‘rganish va hokazo. Xorij tadqiqotchisi Maykl Lukasning so‘zlariga ko‘ra, ijtimoiy fobiya nafaqat bolalar uchun xavfli balki, kattalar uchun ham zararli sanalgan hodisa hisoblanadi. Ya’ni uni boshdan kechirayotgan insonlarda hayot sifati pasayadi, ta’limni muddatidan oldin tark etish, ijtimoiy ko‘nikmalarining yetishmasligi, do‘s-t-yaqinlaridan va bo‘s sh vaqtini o‘tkazishdan norozilik, ishsizlik, ishga borishdan bosh tortish va ijtimoiy izolyatsiya boshdan kechirish kabilalar shular jumlasidandir . Muallifning xulosalariga ko‘ra, bu holatlar miya tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri qabul qilinadi va xulq -atvorni shiddat bilan o‘zgartiradi. Shuning uchun, ba’zan ekspressiv xarakterdagi metodikalar ham, mazkur masalada keng qo‘llaniladi. Empirik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish jarayonida, muamoni tuzatish ishlari ham alohida hisobga olinadi. Bolalarda paydo bo‘luvchi “ijtimoiy fobiya” hodisasi ham bundan mustasno emas. Psixoterapivt L.G.Jedunovaga ko‘ra, tashxis qilingan qolaversa, metodika yoki testlar orqali aniqlangan ijtimoiy fobiyanı korreksiya qilish ishlari, bir necha bosqichda amalga oshiriladi :

1-bosqich - Psixolog bolaning qo‘rquvini aniqlash uchun, ota-onalar yoki o‘qituvchilarining arizalarini qabul qiladi;

2-bosqich - psixolog bolalar va ularning ota-onalari bilan tegishli psixologik, amaliy texnikalar bilan ishlaydi;

3-bosqich - O‘qituvchi va ota-onalar hamda bolaning psixodiagnostika natijalarini muhokama qilish;

4-bosqich - bola bilan korreksion mashg‘ulotlarini o‘tkazish.

5-bosqich - bolaning qo‘rquvni qayta tashxislash, uning natijalari o‘qituvchi va ota-onalar bilan ham muhokama qilinadi. F.Zimbardoning yozishicha, qo‘rquvga moyil bolalar bilan birgalikda, psixokorreksion ishlar olib borishning uch yo‘nalishi ajratiladi :

1. O‘z-o‘zini hurmat qilishni oshirish;

2. Shaxslarga emotsional kuchlanishni yo‘qotish usullarini o‘rgatish (qum texnikasi, rasm chizish va haykaltaroshlik, massaj) (Yu.M.Lotman 2000) ;

3. Nizoli vaziyatlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish (rolli o‘yinlar, psixoterapivtik usullar shular jumlasidandir).

Boshqa psixologik tadqiqotlardan farqli ravishda, tadqiqotimiz uchun metodologik asos sifatida, quyidagi tizimli yondashuvni foydalanishga harakat qildik (V.A.Barabanshchikov, A.V.Karpov, B.F.Lomov). Tadqiqotning turli bosqichlarida kuzatish, suhbat va so‘rov usullari qo‘llanildi.Tadqiqot maqsadlariga erishish uchun biz, ijtimoiy fobiya rivojlanishiga yordam beruvchi omillar haqidagi farazlarimizni, imkon qadar to‘liq tekshiruvchi usullardan foydalanishga harakat qildik. Shuni alohida ta’kidlab o’tish joizki, ota-onalarning bolaga munosabatini o‘rganish usullari guruhiba E. Shafer, S.K.Nartova-Bochaverning “Psixologik makonning suvereniteti” anketasi. M.Kunning “O‘z-o‘zini

anglash so‘rovi, Mak Partlendning “Men kimman?” testi, V. V. Stolin, S. R. Panteleevning “O’z-o’ziga munosabat so‘rovi”, D. V. Lyusinning “Emotsional intellekt” so‘rovnomasi, M.R. Leibovich tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy fobiya baholash testi kabilarni kiritish mumkin.

Quyida dissertatsion tadqiqotimizda qo‘llanilgan ya’ni, ota-onalarning o‘z bolalariga bo‘lgan salbiy munosabatini hamda ijtimoiy fobiyaga olib keluvchi holatlar va shaxsning imkoniyatlarini baholovchi metodikalar va ayrim shaxslilik so‘rovnomalarining qisqacha mazmunini yoritishga harakat qilamiz.

### Sagalakova O. A. va D. V. Truevtsevlarning “Ijtimoiy fobiya” so‘rovnomasi

Ушбу сўровнома ижтимоий фобияни ўрганишга мўлжалланган бўлиб, унда турли ҳаётий вазиятларда инсоннинг кўркув хисси билан боғлиқ хатти-харакатлари мажмуюи ўз акс этган. Сўровнома 29 та саволдан иборат бўлиб, унда ижтимоий ташвиш, ижтимоий жасорат, ижтимоий фобия, ижтимоий вазиятлардан қочиш, клиник ижтимоий фобия каби шкаладардан иборат.

0 dan 15 aksariyat ijtimoiy vaziyatlarda ifoda etilmagan ijtimoiy tashvish, ijtimoiy jasorat va tashabbuskorlik, ijtimoiy moslashuv, o‘zini namoyon qilish sharoitida qo‘rquvning etishmasligidan dalolat beradi.

16 dan 30 ko‘plab baholash holatlarida ijtimoiy jasorat va ekspert baholash holatlarida (rasmiy va yoki samimi — shaxsiy) ijtimoiy tashvishning epizodik ko‘rinishlari o‘rtasidagi oraliq zonadir, 31 dan 39 ballgacha-o‘rtacha ko‘tarilgan ijtimoiy tashvish. Kuchli stress holatida ijtimoiy tashvishning og‘irligi oshishi mumkin.

40 ball va undan yuqori — ijtimoiy tashvishning kuchayishi. Ijtimoiy moslashuvdagi muammolar, aloqalarni o‘rnatishda qiyinchiliklar yoki muayyan vaziyatlarda individual ijtimoiy qo‘rquvlar paydo bo‘lishi mumkin. Tanqid qilish, rad etish qo‘rquvi xarakterlidir, ammo bu vaziyatlardan to‘liq qochish mumkin emas.

50 ball va undan yuqori — yuqori ijtimoiy tashvish, ijtimoiy vaziyatlardan qochish tendentsiyalari, muayyan ijtimoiy vaziyatlarda ishtirok etishda kuchli keskinlik, tanqidning muhim holatlarida dekompensatsiya, potentsial salbiy baho. Ijtimoiy vaziyatning ayrim jihatlaridan ijtimoiy qo‘rquvlar bo‘lishi mumkin (boshqalar hayajonlanish belgilarini ko‘rishadi, nazorat ostida ishlaydi, ba’zi vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatadi va hokazo). Subyektiv ravishda, muloqot qobiliyatining etishmasligi, kommunikativ jasoratning etishmasligi, hayotning turli sohalarida o‘zini namoyon qilish va faol ijtimoiy o‘zini o‘zi anglash istagi namoyon bo‘ladi.

60 ball va undan yuqori — klinik ijtimoiy fobiya. Har xil turdagи o‘zini namoyon qilish holatlarida baholashning bir nechta qo‘rquvi, kuchli hissiy va jismoniy zo‘riqish, qochish tendentsiyasi, o‘zini izolyatsiya qilish yoki qaram holatlar, individual yoki ko‘plab ijtimoiy vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatish qo‘rquvi xarakterlidir.

70 ball va undan yuqori — dekompensatsiyadagi klinik sotsiofobiya, komorbid kasalliklar va xulq-atvor xavflari ehtimoli oshdi. Ushbu ijtimoiy fobiya darajasidagi depressiya ko‘pincha 80% dan ortiq hollarda (o‘rtacha yoki chuqur) uchraydi. Bundan tashqari, giyohvand moddalarni suiiste‘mol qilish, o‘z joniga qasd qilish fikrlari va/yoki xatti-harakatlari kabi komorbidlik ehtimoli bor. Shaxsning premorbid turiga va sub‘ektning haqiqiy «yashash maydoniga» qarab tashqi yoki ichki tajovuzning namoyon bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Oida bolaning sog‘lom va aqliy rivojlanishining asosiy shartlaridan biri bu, uning hissiy jihatdan etuk va ijtimoiy barqaror muhitda o‘sish jarayonidir. Ta’kid joizki, oilada eng avvalo bolaning hissiy sohasi shakllanadi, shu bois ham, munosabatlarning psixologik tomoni alohida ahamiyatga egadir. Mazkur bobda bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar orqali, sotsial fobiya yuzaga kelishining shart-sharoitlari ko‘rib chiqildi. Ya’ni, qator psixologik tadqiqotlarning metodologik qismlari keng tahlil qilinib, oiladagi muloqotning shakli va shaxslararo munosabatlar, bolaning hissiy sohasi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ko‘pincha, ota-onsa o‘rtasidagi munosabatlarining buzilishi, bolaning rivojlanishiga yomon ta’sir qilar ekan, hattoki ba’zi hollarda, bu holat bolalarda nevrozlarni paydo etishi ham dalillandi. Agar bola oilasida ezgu niyat va mehr hukmron bo‘lsa, bu ijobjiy omil bo‘lib, aksincha, ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar va shaxsida muammolari bo‘lgan bolalar, sovuq begonalashuv va doimiy nizolar muhitida o‘sadi. Oilada bola kattalar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning hissiy reaktsiyalarini kuzatish va unga yaqin odamlarning his-tuyg‘ularining barcha turli ko‘rinishlarini his qilish orqali, axloqiy va hissiy tajribaga ega bo‘la boradi. Shuningdek, bola tinch muhitda xotirjam bo‘ladi, u boshqa

tengqurlaridan xavfsizlik va hissiy muvozanat hissi bilan ajralib turadi. Misol uchun, avtoritar tarbiya uslubida kattalar bolalarning xavfsizlik, sevgi, muloqot va atrofdagi dunyoni bilish kabi ehtiyojlarini qondirmaydi. Bunday tarbiya muhitiga ega bo’lgan bolalar, keyinchalik atrofdagi dunyoga tahdid ko’zi bilan qarashga, kuchli xavotirni boshdan kechirishga odatlanadilar.

Ota -ona munosabatlarida, sotsial fobiya paydo bo’lishini tadqiq etishning metodik ta’minoti vositalariga M.R.Leybovich, Ye.D.Shaffer, S.K.Nartova-Bochaver, M.Kun, T.V.Rumyanseva, V.V.Stolin, S.R.Pantelev, L.I.Vasserman, B.V.Lovlev, D.V.Lyusin, Rene Jil kabilar tomonidan ishlab chiqilgan psixodiagnostik usullar majmuini misol qilish mumkin. Aynan ushbu metodikalar, oiladagi ota-ona munosabatlarining bola shaxsiga salbiy ta’sirini ochib beruvchi, eng ilg’or uslubiy vositalar sifatida e’tirof etiladi.

Zamonaviy psixologiyadagi barcha bilimlarga qaramay, oilaning reproduktiv funksiyasi va uning jamiyat hayotidagi rolini o’rganishga oid juda ko’p yondashuvlar mavjud. Bizningcha, oila – bu nikoh, ota-onalik, qarindoshlik rishtalari bilan bog’langan va shu orqali aholining ko’payishi va avlodlar davomiyligini ta’minlashga asoslangan, bolalarni ijtimoiylashtirishni amalga oshiradigan, yagona oilaviy faoliyatga asoslangan insonlar jamoasidir. Demak, oilaviy ota-onalarning turli funksiyalari uyg‘unlashgan maskan sanalib, unda reproduktiv, tarbiyaviy, iqtisodiy, ijtimoiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, oiladagi o’zaro munosabatlar, er -xotin munosabatlari, bolaga bo’lgan mehr-oqibat, oiladagi empatik munosabat, psixologik farovonlik kabilar, oilada bola shaxsi shakllanishining muhim shart-sharoitlaridan biridir. Olimlardan Z.Freyd, E.Erikson, E.Fromlarning qarashlari bilan aytganda, oilada ota-ona va bolalar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarda hech bir og‘ishlar bo’lmasligi uchun, o’zaro munosabatlar ishonch hissiga asoslangan, ma’lum bir himoyaga va erkinlikka asoslangan bo’lishi maqsadga muvofiq sanalar ekan.

Bolaning psicho-emotsional farovonligi, shuningdek, ota-ona va bolalar o’rtasidagi munosabatlarining tabiatini va xususiyatlari o’zaro bog’liqdir, chunki oila bola nafaqat o’sadigan, balki rivojlanadigan bиринчи va asosiy muhitdir. Kattalarning his-tuyg’ulari, oiladagi tarbiya uslubi ham bolaga shakllanishiga keng ta’sir qiladi. Bundan tashqari, bir necha tadqiqotlar boladagi qo’rquv va oilaviy tarbiya xususiyatlari o’rtasidagi bog’liqlikka bag’ishlangan. Bunda bolalarda paydo bo’luvchi o’zaro munosabatlarga asoslangan fobiya asosan, bola va ota-ona o’rtasidagi hissiy yaqinlikning past ligi, ota-onalardagi bolaning ahvolini idrok qobiliyatining pastligi, bolani iliq qabul qilishning past darajasi, tarbiyadagi nomuvofiqlik va oila ichidagi nizolarning yuqori darajasi va hokazo. Misol uchun, 5-6 yoshli bolalarda qo’rquvning shakllanishida yetakchi rol sifatida, ota-onalar tomonidan bolani qabul qilishning past darajasi va oilaviy nizolar, ota-onalarning yuqori darajadagi talabchanlik darajasi, tarbiyadagi qat’iylik, haddan ortiq qo’yilgan talablar shular jumlasidandir.